

INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARIDA QO‘SHMA SO‘ZLARING SO‘Z YASASH TIZIMIDA TUTGAN O‘RNI

Abdumajidova Nodira¹

¹ *Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universitetining Xorijiy til fakultetining
Tarjima nazariyasi va amaliyotining 4-kurs talabasi*

Nilufar Sadullaeva¹

¹ *Ilmiy rahbar:*

MAQOLA MALUMOTI

ANNOTATSIYA:

MAQOLA TARIXI:

Received: 10.05.2025

Revised: 11.05.2025

Accepted: 12.05.2025

KALIT SO‘ZLAR:

*qo‘shma so‘z, so‘z
yasash, qisqartma so‘z,
ibora,
lingvokulturologiya*

*Ingliz tilida keng tarqalgan til hodisalaridan
bo‘lmish qo‘shma so‘zlar va ularning tarkibiy
tuzilishi va shu bilan bog‘liq bo‘lgan semantikasini
o‘rganish va shu asosda ularni o‘zbek tilidagi
qo‘shma so‘zlar bilan qiyoslash, har ikkala til
uchun umumiy bo‘lgan xususiyatlarni
umumlashtirish va shu asnoda qiyoslanayotgan
tillarning har biriga xos bo‘lgan xodisalarni
ochib berishdir.*

KIRISH. Tilning qiyosiy va tipologik tadqiqotlari xorijiy tillarni o‘qitishda ilmiy asoslangan tizimni yaratish borasidagi amaliy vazifalarda ham umumiy xususiyatlarga ega. Hammaga malumki, chet tili o‘qituvchisi o‘zining dastlabki amaliy ishlaridayoq ona tili va chet tilini qiyoslab ish olib borishi kerak. Demak, qiyoslab o‘qitish amaliy nuqtai nazaridan benazir hisoblanadi va har doim chet tilini o‘rganishda lingvistik asos sifatida namoyon bo‘ladi. Chet tilini o‘rganishda lingvistik tipologiya ham amaliy qimmatga ega.

Chet tilini o‘qitishda ona tili va xorijiy tilning tipologik belgilarining ifodalanishi muhim hisoblanadi. “Har ikkala tildagi mavjud tipologik belgilar, – deb yozadi mashhur sovet tilshunosi va uslubiyotchisi professor V.D.Arakin, – xorijiy tillarni o‘rganishdagi ilmiy asoslangan tizimni ishlab chiqish va uning asosida xorijiy tillarni o‘qitish uchun ilmiy asoslangan darsliklar yaratish imkonini beradi” Tillarning qiyosiy va tipologik tahlili tijasida yuzaga kelgan

xulosalar nazariy tarjima printsiplarini yaratishda muhim rol o'ynaydi.

L.S.Barxudarovning etiroflariga ko'ra, tarjimaning lingvistik nazariyasi nafaqat "tarjima juftligi"ni hosil qiluvchi tillar orasidagi o'xshashlik, balki farqli tomonlarni taxminiy ochilgandagina maqsadga muvofiq holda ishlab chiqilishi mumkinligini takidlagan. Shunday qilib, qiyosiy va tipologik metodlarning maqsad va vazifalari o'pgina bo'limlarda mos keladi, qiyosiy metodgina o'z tabiatiga ko'ra, tilning haqiqiy qiyosiy xarakteristikasining dastlabki bosqichi, degan tarifning to'g'riligini tasdiqlaydi. Shuning uchun tilshunoslikka oid adabiyotlarda "qiyoslash" atamasini tipologik metod doirasida ishlatadilar, "taqqoslash" atamasini esa qarindosh tillarni qiyosiy o'rganish doirasida (yani genetik metod borasida) qo'llaydilar.

Qiyoslanayotgan tillardagi so'z yasash usullaridan yana biri abbreviatsiya, yani so'zlarni qisqartirish (bir qismini chilib tashlash) orqali so'z yasashdir.

Malumki, tilshunoslikda "lingvistik tejamkorlik" (lingvisticheskaya ekonomiya) degan tushuncha bor. Real hayotda bo'lganidek, inson tildan foydalanish jarayonida ham tejamkorlik tamoyilidan unumli foydalanadi.

Bu hol, ayniqsa, ingliz va rus tillarida keng tarqalgan. Sharq tillarida, xususan, turkiy tillarda bu hol unchalik keng tarqalgan emas. Ingliz tilidagi "It is necessary that you should go home" gapini "It is necessary for you to go home" tarzida yoki shunchaki tinlovchiga murojaat qilib, "It is necessary to go" tarzida qisqartirilishi kabi hollar bu fikrni tasdiqlashi mumkin. Yoyinki, "It is..., It has..." iboralarini "It's..." tarzida, "We will go" gapini "We'll go" tarzida ishlatilishi ham bu holni tasdiqlashi mumkin. Ana shu tamoyil asosida muloqot jarayonida so'zlar ham qisqartirilishi va natijada yangi so'z hosil bo'lishi mumkin. Masalan: 1. UNO - the United Nations Organization, USA - the United States of America,

UK - the United Kingdom, CIS- Commonwealth of Independent States;

2. lab - laboratory, prof - professor, Mr - Mister;

3. smog - smoke and fog, motel - motor hotel va boshqalar.

Bunday holni rus tilidagi "OON, SShA, TsK, SNG, voenkomat" kabi so'zlarda ham ko'rish mumkin. Biroq o'zbek tilidagi MDH - mustaqil davlatlar hamdo'stligi, AYoQSh - avtomobillarga yonilg'i quyish shaxobchasi kabi so'zlarda qandaydir notabiiylik, boshqa tillardagi hodisalarga suniy tarzda taqlid qilishdek bir f'aliz hodisa kuzatiladi. Agar o'zbek tilida yaratilgan klassik asarlarga, jumladan, Abdulla Qodiriyning "Mehrobdan chayon", O'tkan kunlar", Oybekning "Qutlug' qon", "Navoiy" kabi asarlariga ko'z yugurtirsangiz, bironta ham qisqartma so'zga duch kelmaysiz. Demak, qisqartma usulda so'z yasash o'tgan asrning ikkinchi yarmidan boshlab rus tilining tazyiqi ostida o'zbek tiliga ham kirib keldi.

Soʻz yasashning sarmahsul usullaridan boʻlmish qoʻshma soʻz yasash (Word composition) usuli qiyoslanayotgan har ikkala til uchun ham xarakterli boʻlgan usullardan biridir. Bunda ikki oʻzak yoki negizning bir oʻzakka yoki negizga biriktirilishi orqali yangi manoli soʻzlar yasaladi. Masalan:

Ingliz tilida: week-end, office-management, postage-stamp, aircraft-carrier, shoe-maker, bottle-opener, school-master, horseracing, post office, headache, horseshoe, earthquake, screwdriver, sunset, etc.

Oʻzbek tilida: boshpana, Oltiariq, gultojxoʻroz, besh panja, gul qaychi, oshqovoq, toʻyxona va boshqalar. Yuqorida nomlari zikr etilgan soʻz yasash usullari ichida qoʻshma soʻz yasash uchun yuqorida aytganimizdek, oʻzining sarmahsulligi bilan, har ikkala tilga xos lgan umumiy va ayrim olingan til uchun xos boʻlgan xususiy jihatlari bilan, oʻzining tarkibiy tuzilishidagi komponentlari bilan va, nihoyat, ular ifodalagan semantik manolarning oʻziga xosligi bilan yuqorida tilga olingan soʻz yasash usullaridan alohida ajralib turadi. Shu bois ham bu mavzuni alohida fasllarda tahlil qilishni maqul koʻrdik.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. V.D.Arakin Lingvisticheskaya tipologiya i metodika obucheniya inostrannim yazikam. "Voprosi teorii metodiki prepodavaniya inostrannix yazikov". Kazan, 1969, 77.
2. Abduraxmonov F., A. Sayfullaev, H. Rustamov. Ona tili. T., 1995.
3. Abdurahmonov F., Sh.Shukurov. Oʻzbek tilining tarixiy grammatikasi. T., 1973.
4. Abduraxmonov X., A. Rafiev. Oʻzbek tilining amaliy grammatikasi. T., 1992.
5. Amosova N.N. Osnovi angliyskoy frazeologii. LGU, 1963
6. Arnold I.V. Stilistika sovremennogo angliyskogo yazika L.1981.
7. Arnold I.V. Leksikologiya sovremennog angliyskogo yazika. (The English Word) M., 1973.
8. Arutyunova N.D. Ocherki po slovoobrazovaniyu v sovremennom ispanskome yazike. M.,1961.